

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUSEYIBZADA JOVHAR SHAMSADDIN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON RESPUBLIKALARINING XALQARO
TASHKILOTLARDAGI FAOLIYAT VEKTORLARI VA ULARNING
QIYOSIY TAHLILI**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии(PhD)**

**Contents of the Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
Dissertation**

Museyibzada Jovhar Shamsaddin o‘g‘li

O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro tashkilotlardagi faoliyat
vektorlari va ularning qiyosiy tahlili.....3

Museyibzada Jovhar Shamsaddin

Directions of Uzbekistan’s and Azerbaijan’s Involvement in International
Organizations and their Comparative Analysis.....27

Мусейибзада Джовхар Шамсадин оглу

Векторы деятельности Республики Узбекистан и Азербайджанской
Республики в международных организациях и их сравнительный
анализ.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUSEYIBZADA JOVHAR SHAMSADDIN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON RESPUBLIKALARINING XALQARO
TASHKILOTLARDAGI FAOLIYAT VEKTORLARI VA ULARNING
QIYOSIY TAHLILI**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1609 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov Baxriddin Axmedovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adigezalov Azer Nadir ogli
tarix fanlari doktori, bosh ilmiy xodim

G'ofurov Nizomjon Oktyabrovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "27" 08 soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (801 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "14" 08 kuni tarqatildi.
(2026-yil "14" 08 da 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.B.Dexkanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor.

N.O.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent.

M.G.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi anotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asrning 90-yillarida sotsialistik tizimning inqirozi oqibatida tubdan o'zgargan siyosiy-iqtisodiy muhit, mintaqaviy mojarolarning yuzaga kelishi va globallashuv jarayonining kuchayishi dunyo miqyosida xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu voqealar fonida suverenligini barpo etgan O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari mustaqilligini yanada mustahkamlash, jahon maydonida nufuzli o'rin egallash, legitimlikka erishish, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashish maqsadida o'z tashqi siyosatida xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'yib kelmoqda. Bugungi kunga kelib har ikki davlat huquqiy tamoyillar asosida xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarini to'laqonli amalga oshirmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro munosabatlar tizimidagi faolligi, xususan, nufuzli tashkilotlar doirasida olib borayotgan tashabbuskor siyosati tadqiqot markazlari nazarida bo'lib kelmoqda. Yevropa, Osiyo, AQSh va Rossiyadagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan ularning tashqi siyosat strategiyasi va xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki bo'yicha qator ilmiy tahlillar olib borilmoqda¹. Shu jihatdan, mazkur dissertatsiya bugungi kunda ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tortayotgan dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu omillar bois O'zbekiston va Ozarbayjonning tashqi siyosat maqsadlarini xalqaro tashkilotlar vositasida amalga oshirish strategiyalarini zamonaviy metodologiyalar asosida tadqiq etish zarurati tug'ilmoqda.

Tashqi siyosiy va iqtisodiy yo'lning samarali davom ettirilishi mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish hamda "milliy brend" deb ataladigan imijini xalqaro maydonda mustahkamlashda eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, "O'zbekiston ochiq, va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda²." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalqaro tashkilotlarni tashqi siyosatning asosiy vektorlaridan biri ekanligi, hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tibor markazidaligi alohida ta'kidlanmoqda³.

2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-son "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

¹ Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha Gaaga tadqiqot instituti; Shvetsiyada joylashgan Xavfsizlik va taraqqiyot siyosati instituti; Fransiya xalqaro munosabatlar instituti qoshidagi Rossiya/Yevrosiyo markazi; Turkiyadagi Yevrosiyo tadqiqotlari markazi (AVIM); Turkiya Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi Strategik tadqiqotlar markazi (SAM); Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqiy Yevropa, Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti; shuningdek AQShdagi Jorjtaun universiteti qoshidagi Yevrosiyo, Rossiya va Sharqiy Yevropa tadqiqotlari markazi; Amerika tashqi siyosat Kengashi qoshidagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti; Carnegie Rossiya Yevrosiyo markazi; RFA Sharqshunoslik instituti qoshidagi O'rta Osiyo, Kavkaz va Ural-Volgani o'rganish markazi (CAUCAVUS) kabi markazlar.

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда Эркин ва фаровон яшайлик!. – Tashkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – Б. 7.

³ O'sha manba. – Б. 27.

Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 30-iyundagi PQ-3105-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 31-dekabrdagi PQ-467-son “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari tashqi siyosiy faoliyatlarining turli aspektlariga mahalliy va xorijlik mualliflarning bir qator ishlari bag‘ishlangan. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratib, tahlil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhni mustaqillik davrida o‘zbekistonlik olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va uning xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyatini F.Xakimov, A.Komilov, S.Jo‘rayev, T.Dadabayev, A.Kadyrov, F.Kobilov, M.Boltayev, A.Urazoliyev, O.Allaberganov, Z.Jumaxanov, A.Toshpulatov, F.Najimov va M.Raximov kabi tadqiqotchilar o‘rgangan⁴. Ularning maqolalarida mamlakatning mintaqaviy va global miqyosdagi diplomatik faoliyati, tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalarining ma’lum bir jihatlarini tahlil etilgan. Ayniqsa, R.Maxmudovning hozirgi O‘zbekiston tashqi siyosatini o‘rgangan tadqiqotida yangi bir tendensiya, ya’ni “ko‘p qirrali

⁴ Хакимов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар. // Strategy of Uzbekistan – Ўзбекистон, 2021. – Б. 96–103; Хакимов Ф. Халқаро ва минтақавий ташкилотлар доирасида Ўзбекистоннинг кўп томонлама дипломатияси. – Ўзбекистон: 2022; Комилов А. Ўзбекистоннинг имижли тубдан ўзгармоқда // Strategy of Uzbekistan. – Ўзбекистон, 2021. – Б. 166–173; Жўраев С. Марказий Осиёдаги тизимли муаммолар ечимининг янги трендлари (Таҳлилий маъруза). // Oriental Journal of History, Politics and Law. – 2022. – Б. 340–352; Dadabaev T. Uzbekistan as Central Asian Game Changer? Uzbekistan’s Foreign Policy Construction in the Post-Karimov Era // Asian Journal of Comparative Politics. – 2018. – Pp. 1–14; Kadyrov A. Key Foreign Policy Priorities of a Renewed Uzbekistan. – Uzbekistan: Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan, 2020; Kobilov F. From Geopolitical Pendulum to Regional Player: Uzbekistan’s Regional Foreign Policy Following the Leadership Change in 2016. // Central Asian Survey. – 2025. – Pp. 1–21; Болтаев М. Марказий ва Жанубий Осиё ўртасидаги минтақавий боғлиқликни таъминлаш йўлида // Xalq so‘zi, 2021; Urazoliyev A. Birlashgan Millatlar Tashkiloti O‘zbekiston Faoliyatida. // Education and Research in the Era of Digital Transformation. – 2025. – Pp. 91–96; Allaberganov O. O‘zbekiston va Birlashgan millatlar tashkiloti hamkorligi tarixiga bir nazar. – 2025. – Б. 65–68; Jumaxanov Sh. and Toshpulatov A. Geographical and Geopolitical Factors of Uzbekistan’s Foreign Policy. // Центральноазиатский Журнал Географических исследований. – 2023. – С.39–48; Nadzhimov F. Cultural and Public Diplomacy in the Foreign Policy of the Republic of Uzbekistan. // International Journal of History and Political Sciences. – 2025. – Pp. 22–27; Рахимов М. Приоритеты внешней политики Республики Узбекистан. // Россия и новые государства Евразии. – 2020. №3. – С. 111–23; Gabdulhakov R. The Highly Securitized Insecurities of State Borders in the Fergana Valley // The Central Asia Fellowship Papers, 2015. – 10 p.

strategik hamkorlik” konsepsiyasining shakllanishi va yumshoq kuch instrumentlarining mintaqaviy darajada samarali qo‘llanilishi tahlil qilingan⁵. D.Sayfullayev esa O‘zbekiston diplomatiyasi tarixini 1991–2015-yillar davrida asosiy tarixiy voqealarga tayanib olti bosqichga ajratgan hamda har bir bosqichda mamlakatning faol va pragmatik tashqi siyosatini alohida ta’kidlab o‘tgan⁶.

Dissertatsiya doirasida o‘zbekistonlik olimlar tomonidan yozilgan monografiyalar ham tahlil qilindi. Ularning asarlarida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning O‘zbekiston tashqi siyosatidagi o‘rni, hamda mamlakatning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi roli yoritilgan⁷. Xususan, M.Saidazimxo‘jayeva hammuallifligida chop etilgan kollektiv monografiyada O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, islohotlar va tashqi siyosatdagi yangi strategiyalar haqida ma’lumot berilgan⁸. Shuningdek, S.G‘afurov o‘z tadqiqotida O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik va faol diplomatiya tamoyillari asosida rivojlanayotganini, Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik inqiroz va Afg‘oniston masalasiga qaratilgan mamlakatning xalqaro tashkilotlar doirasidagi tashabbuslari haqida tahliliy mulohazalar bildirgan⁹.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va ko‘p tomonlama hamkorligi masalalari doimo tadqiqotchilarning e’tiborida bo‘lgan. Natijada ayni masalalarga bag‘ishlangan dissertatsiyalarni ham uchratishimiz mumkin. O‘zbekistonda amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar qatoriga Sh.Xaydaraliyev, O.Abdimo‘minov, Sh.Toshturov, A.Xamidova, F.Usarova va A.Ibraimovanning ishlari kiradi¹⁰. Ularning dissertatsiyalarida, asosan, O‘zbekistonning ayrim xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlari hamda mintaqaviy xavfsizlikni

⁵ Махмудов Р. Внешняя политика современного Узбекистана // Россия и новые государства Евразии – Москва, 2021. №1. – С. 121–134.

⁶ Sayfullayev D. Uzbekistan’s Diplomacy in the Modern International Relations System // Journal of Public Affairs. – 2016. №4. – Pp. 415–422.

⁷ Dadabaev T. Decolonizing Central Asian International Relations: Beyond Empires. – London: Routledge, 2021. – 168 p.; Шарапова С. Многосторонность и внешняя политика Республики Узбекистан. – Ташкент: Ташкентский гос. ин-т востоковедения, 2007. – 178 с.; Nazarov O. va Ne‘matov R. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlari bilan aloqalari (YUNESKO MISOLIDA). – Guliston: Ziyoy, 2020. – 96 b.; Abdullayev S., Xajiyev B., va Mambetjanov Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2018. – 424 b.; Xoliqova R. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteti, 2021. – 269 b.; Jurayev H., Iminov B., Begimqulova I., Oxunjonova Sh. O‘zbekistonning Eng Yangi Tarixi. – Farg‘ona: 2023. – 296.

⁸ Saidazimkhujayeva M. Modern Central Asia: Regional Connectivity & Capacity Building (Collective Monograph). – Tashkent: Fan Ziyosi, 2022. – 254 p.

⁹ G‘afurov S. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Merit Print, 2023. – 108 p.

¹⁰ Xaydaraliyev Sh. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistonning o‘rni. Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) Diss. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2012. – 165 b.; Abdimo‘minov O. O‘zbekiston Respublikasining birlashgan millatlar tashkiloti bilan munosabatlari tarixi. Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) Diss. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, 2018. – 213 b.; Toshturov Sh. O‘zbekiston Respublikasining BMT global dasturlaridagi ishtiroki tarixi. (PhD) Diss. – Buxoro: Navoiy davlat pedagogika instituti, 2022. – 142 b.; Xamidova A. O‘zbekiston Respublikasining BMT bilan hamkroligini xalqaro-xuquqiy jihatlar. (PhD) Diss. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2008; Usarova F. Globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-g‘oyaviy negizlari. Siyosiy fan. nomzodi diss. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2009. – 161 b.; Шарапова С. Основные проблемы становления и развития внешней политики Республики Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Ташкент: Государственный институт востоковедения, 1997. – 131 с.; Ibraimova A. O‘zbekiston Respublikasini Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarining geografik jihatlar. – Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, 2012. – 152 b.

ta'minlashdagi roli o'rganilgan. Bu o'rinda A.Adigezalov tomonidan yozilgan ilmiy ishga e'tibor qaratishimiz zarur¹¹. U dissertatsiyasida O'zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tuzilmalar doirasidagi o'zaro hamkorligini tahlil etgan. Mazkur dissertatsiyada esa har ikki davlatning xalqaro tashkilotlardagi tashqi siyosat faoliyati alohida o'rganilgan. Shuningdek, ularni o'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar sifatida qiyosiy tahlil qiladi.

Ikkinchi guruhga ozarbayjonlik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar kiradi. Xususan, L.Guliyeva, Sh.Abilov, B.Hajiyev, A.Geybulla, A.Habibbeyli, M.Ismayilov, G.Shiraliyeva, T.Faradov, Sh.Mammadli, Z.Shiriyev, K.Makili-Aliyev, A.Valiyev, N.Ahmadov, F.Mammadov va A.Rasizade tomonidan Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, tashqi siyosiy yo'nalishlari turli jihatlar bilan o'rganilgan¹². Ularning asarlarida asosan Ozarbayjonning xalqaro maydondagi faoliyati hamda mintaqaviy va global tashkilotlar orqali milliy manfaatlarini ilgari surish strategiyalari yoritilgan. A.Mammadovning tadqiqoti Ozarbayjon tashqi siyosatida xavfsizlik va muvozanat tamoyillari qanday shakllanganini nazariy asosda tahlil qilganligi bilan ajralib turadi. M.Baylarovning izlanishlari esa Ozarbayjonning hududiy yaxlitlik tahdidlari bilan kurashi va energiya resurslarini tashqi siyosat omili sifatida baholashi ko'rsatib o'tilgan.

Ozarbayjonlik olimlar hamda o'z monografiyalarida Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki tarixi, davlat nufuzining shakllanishi va tashqi siyosiy kursining rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar¹³. Bu

¹¹ Адигезалов А. Сотрудничество Республики Узбекистан с Азербайджанской Республикой в деятельности региональных и международных организаций. Диссертация (DSc) по историческим наукам. – Ташкент: Международный институт Центральной Азии, 2025. – 260 с.

¹² Гулиева Л. Азербайджан и Международные Институты в Сфере Культуры: Механизмы и Основные Направления Сотрудничества. // Вестник Московского Государственного Лингвистического Университета – Москва, 2013. – С. 138–143; Abilov Sh. and Hajiyev B. Why the Neutrality of Azerbaijan Is Important for the European Union. // Insight Turkey. – 2019. №3. – Pp. 53–67; Geybulla A. The Third Powers and Azerbaijan. – European Union Institute for Security Studies, 2018. – Pp. 101–110; Habibbeyli A. Reconsidering Azerbaijan's Foreign Policy on the 25th Anniversary of Restored Independence. // PERCEPTIONS: Journal of International Affairs. – 2017. №1. – Pp. 29–48; Ismayilov M. Power, Knowledge, and Pipelines: Understanding the Politics of Azerbaijan's Foreign Policy. // Caucasus Survey. – 2014. №1-2. – Pp. 79–129; Şirəliyeva G. İslam Əməkdaşlıq Təşkilatının Fəaliyyətində Heydər Əliyevin Rolu. // Academic Journal of History and Idea. – 2023. №4. – Pp. 1057–1066; Faradov T. Foreign Policy Orientations in Azerbaijan: Public and Elite Opinion. – Baku: North Atlantic Treaty Organization Final Report, 2003. – 76 p.; Mammadli Sh. Azərbaycan İslam əməkdaşlıq təşkilatının üzvü kimi. // Bakı: Tarix, İnsan və Cəmiyyət. – 2019. №2. – Pp. 125–132; Shiriyev Z. Azerbaijan's Perspectives on the OSCE Minsk Group. // Security and Human Rights. – 2016. №3-4. – Pp. 442–466; Makili-Aliyev K. Azerbaijan's Foreign Policy: Between East and West... // Istituto Affari Internazionali. – 2013. – 14 p.; Valiyev A. Azerbaijan's Foreign Policy: What Role for the West in the South Caucasus? / Eastern Voices: Europe's East Faces an Unsettled West. – Washington: 2017. – Pp. 133–149; Ahmadov N. 20 Years of Shanghai Cooperation Organization: A View from Azerbaijan. // Modern Diplomacy, 2021; Mammadov F. Azerbaijan's Foreign Policy – A New Paradigm of Careful Pragmatism. The South Caucasus Between Integration and Fragmentation. – 2015. – Pp. 29–36; Rasizade A. Azerbaijan in Transition to the "New Age of Democracy". // Communist and Post-Communist Studies. – 2003. №3. – Pp. 345–372.

¹³ Hasanov A. Современные международные отношения и внешняя политика Азербайджана. – Баку: Zərdabi, 2013. – 1008 с.; Abdullayev B. Azərbaycan və ATƏT. – Bakı: İqtisad Universiteti, 2010. – 100 s.; Qarayev R. Ermənistan-Azərbaycan, Dağlıq Qarabağ münaqişəsinin nizamlanmasında beynəlxalq təşkilatların qərarlarının əhəmiyyəti və beynəlxalq hüquq. – Bakı: Təknur, 2012. – 344 s.; Gurbanova S. Гейдар Алиев и внешнеполитический курс Азербайджанской Республики. – Баку: Şərq-Qərb, 2010. – 58 с.; Мехтиев Р. Азербайджан: вызовы глобализации. – Баку: XXI-Yeni Nəşrlər Evi, 2004. – 584 с.; Ягизаров Ш. Институт Президентства Азербайджана и Его Роль в Формировании Имиджа Страны. – Баку: Академия государственного управления при президенте Азербайджанской Республики, 2024. – 442 с.; Фейзиов Д.

asarlarda Ozarbayjon tashqi siyosatining institutsional asoslari va davlat suverenitetini mustahkamlashdagi xalqaro omillar kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Xususan, F.Mammadov, J.Valiyev va A.Mammadov tomonidan tayyorlangan kollektiv monografiya Ozarbayjonning 9 ta xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari ochib berilgani holda energetika diplomatiyasining tashqi siyosatdagi ahamiyati ta'kidlangan¹⁴. N.Mammadovning monografiyasida esa Ozarbayjon tashqi siyosatining qattiq kuchdan yumshoq kuch konsepsiyasiga o'tish jarayoni va yangi global tartibot sharoitida uning olib borgan muvozanatli siyosati mohiyati ochib berilgan¹⁵.

H.Mammadova, A.Aliyev, E.Mehdiyev, Z.Ibrahimov, S.Quliyeva va M.Barxudarovlar tomonidan dissertatsiyalarida Ozarbayjon Respublikasi tashqi siyosatining dolzarb muammolari va xalqaro hamkorlik mexanizmlariga e'tibor qaratilgan¹⁶. Ushbu tadqiqotlar Ozarbayjon tashqi siyosatining shakllanishi va diplomatiya sohasidagi yutuqlarini o'rganishga muayyan darajada hissa qo'shgan.

Uchinchi guruh xorijiy mamlakatlarda nashr qilingan adabiyotlarni qamrab oladi. Xususan, R.Burnashev, B.Toktogulov, V.Avatkov, J.E.Strakes, D.Sauerborn, M.Laruelle, J.Daly, E.Fuller, C.Loda, A.C.Kuchins, K.Bashlar, H.Plater-Zyberk, A.Monaghan, A.Muratbekova, A.Pikalov, R.Schaefer, V.Romashov, C.Poujol, D.Degterev, B.T.Fazendeiro, S.N.Cummings, P.J.Luong va N.Drostning asarlarini ko'rsatib o'tish lozim¹⁷. Xorijlik olimlar tomonidan

Значение создания союзов в международной политике и международном праве. / Союз тюркских государств: Евразийская модель глобальной интеграции, 2014. – С. 206-261.

¹⁴ Mammadov F., Valiyev J., Mammadov A. Azərbaycan Respublikasının xarici siyasətinin əsas istiqamətləri: 1991-2016. – Bakı: Poliart, 2017. – 904 s.

¹⁵ Məmmədov N. Xarici siyasət: reallıqlar və gələcəyə baxış. – Bakı: Qanun, 2013. – 264 s.

¹⁶ Məmmədova H. Ermənistan-Azərbaycan Dağlıq Qarabağ münaqişəsi Azərbaycan Respublikasının xarici siyasətində. tarix e. d-ru el. dər. a. üçün təq. ol. dis.. – Bakı: Institute of History named after A.A.Bakikhanov, 2011. – 332 s.; Əliyev A. Ermənistan-Azərbaycan, Dağlıq Qarabağ probleminin həlli beynəlxalq təşkilatların etno-siyasi münaqişələri tənzimləmələri kontekstində. tarix e. n. a. dər. al. üçün təq. ed. dis. – Bakı: AMEA, Arxeologiya və Etnoqrafiya İn-tu., 2010. – 142 s.; Mehdiyev E. Role of International Organizations in Regional Cooperation: Case Study of Azerbaijan in the System of Organization of Islamic Cooperation. – Türkiyə: Marmara University, 2019.; Ibrahimov Z. The Role of the Heydar Aliyev Foundation in the Development of Foreign and Cultural Relations of Azerbaijan. Annotatsiya (PhD). – Bakı: Bakı State University, 2022; Quliyeva S. Heydər Əliyevin əsərləri Azərbaycan Respublikasının İslam Konfransı Təşkilatı ilə əlaqələrini öyrənmək üçün mənbə kimi. – Bakı: Bakı Dövlət Universiteti, 2014. – 186 s.; Bərxudarov M. Qloballaşma şəraitində Azərbaycan Respublikasının xarici iqtisadi əlaqələrin formalaşması xüsusiyyətləri və problemləri. iqt. e. n. a. dər. al. üçün təq. ed. dis.– Bakı: Azərbaycan Dövlət İqtisad Universiteti, 2003. – 176 s.

¹⁷ Toktogulov B. Uzbekistan's Foreign Policy under Mirziyoyev: Change or Continuity?. // Eurasian Research Journal. – 2022. №1. – Pp. 49–67; Avatkov B. и Рожкова З. Концептуальные основы внешней политики Республики Узбекистан на современном этапе. // Постсоветские исследования – Москва: 2022. – С. 825–834; Strakes J.E. Azerbaijan and the Non-Aligned Movement: Institutionalizing the 'Balanced Foreign Policy' Doctrine." // Istituto Affari Internazionali. – 2015. – 24 p.; Sauerborn D., Scianna B.M. and Mazziotti M. Multipolarity Is Key: Assessing Azerbaijan's Foreign Policy. – Center for Economic and Social Development, 2013. – 14 p.; Burnashev R. Uzbekistan's New Course and the Construction of Central Asia. // CABAR, 2021.; Laruelle M. Factoring the Regional Impact of Uzbekistan's Withdrawal from the CSTO. // Foreign Policy and Civil Society Program, 2012. – 3 p.; Daly J.C.K. Outside View: Uzbek Afghanistan Proposal Relevant and Timely. / United Press International, 2009; Daly J.C.K. Implications of Azerbaijan Moving Closer to the Shanghai Cooperation Organization. // Eurasia Daily Monitor. – 2016. №61; Fuller E. Azerbaijan's Foreign Policy and the Nagorno-Karabakh Conflict. // Istituto Affari Internazionali. – 2013. – 12 p.; Loda C. Azerbaijan, Foreign Policy and Public Diplomacy. // Irish Studies in International Affairs – Dublin, 2016. – Pp. 39–55; Kuchins A.C., Mankoff J. and Backes O. Azerbaijan in a Reconnecting Eurasia: Foreign Economic and Security Interests. – Washington: Center for Strategic and International Studies, 2016. – 44 p.; Başlar K. The Commonwealth of Independent States: Decayed within a Decade. // The Turkish Yearbook of International Relations. – Ankara, 2001. №32. – Pp. 91–125; Plater-Zyberk H. and Monaghan A. Strategic Implications of the Evolving Shanghai Cooperation Organization. – Carlisle Barracks

O'zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlardagi faolligi, ularning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida ko'p vektorli diplomatiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlarida har ikki mamlakatning xalqaro platformalardagi ishtiroki, mintaqaviy tashabbuslari va global o'zgarishlarga moslashuv jarayonlari qisman o'rganilgan. Tadqiqot mavzusini ilmiy-metodologik jihatdan boyitgan va nazariy asosini tashkil etgan xorijiy adabiyotlar esa dissertatsiya ishining I bobining birinchi paragrafida to'raligicha yoritilgan.

Keltirilgan keng ko'lamli adabiyotlarning ilmiy salmog'ini inkor etmagan holda O'zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlardagi global tashabbuslari hamda tashqi siyosiy strategiyalarini qiyoslash orqali ularning xalqaro maydondagi o'rinlarini zamonaviy nazariyalar asosida aniqlash bo'yicha alohida tadqiqot olib borilmagan. Biroq yuqorida aytib o'tilgan olimlarning ishlarida mazkur masala alohida ko'rib chiqilmaganligi dissertatsiya mavzusini o'rganish ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari" mavzusi (№9, FDU IK 2019.30.05) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro maydondagi o'rni, xalqaro tashkilotlar doirasidagi tarixiy-diplomatik tashabbuslari, ularning tashqi siyosatini shakllantirish jarayoni, o'xshashlik, farqlari hamda bir-biriga namuna bo'la oladigan jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1991–2025 yillar oralig'ida O'zbekiston va Ozarbayjonning tashqi siyosatini shakllantirgan normativ-huquqiy hujjatlar va mavjud materiallarni o'rganish;

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatlarini belgilovchi va shakllantiruvchi omillarni aniqlash, jumladan ushbu davlatlarning tashqi siyosat strategiyalarini qanday amalga oshirayotganligini izohlash;

xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston va Ozarbayjonning muvaffaqiyatli tashqi siyosat olib borishdagi ahamiyatini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritib berish;

O'zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlardagi ishtirokining tarixiy rivojlanish yo'llarini va har ikki davlatning 7 ta xalqaro tashkilotlarga bo'lgan turli

Strategic Studies Institute, 2014. – 66 p.; Muratbekova A. 2022 SCO Summit in Samarkand: Key Takeaways. / Eurasian Research Institute; Pikalov A. Uzbekistan between the Great Powers: A Balancing Act or a Multi-Vectorial Approach? // Central Asian Survey. – 2014. №3. – Pp. 297–311; Schaefer R. and Whitney A. The Uzbek Wild Card in the New Great Game in Central Asia. // Region: Regional Studies of Russia, Eastern Europe, and Central Asia. – 2015. №2. – Pp. 291–308; Romashov V. Uzbekistan's Balancing Act: A Game of Chance for Independent External Policies. / The Regional Security Puzzle around Afghanistan: Bordering Practices in Central Asia and Beyond. – Toronto, 2016. – Pp. 161–90; Poujol C. International Relations in Central Asia: A Focus on Foreign Policies (1991–2020). / European Handbook of Central Asian Studies: History, Politics, and Societies. – Stuttgart: ibidem, 2021. – Pp. 685–751; Degterev D. and Kurylev K. Foreign Policies of the CIS States: A Comprehensive Reference. – London: Lynne Rienner Publishers, 2019. – 517 p.; Fazendeiro B.T. Uzbekistan's Foreign Policy: The Struggle for Recognition and Self-Reliance under Karimov. – London: Routledge, 2018. – 192 p.; Cummings S.N. Understanding Central Asia: Politics and Contested Transformations. – London: Routledge, 2013. – 256 p.; Luong P.J. Institutional Change and Political Continuity in Post-Soviet Central Asia: Power, Perceptions, and Pacts. – 2002. – 24 p.; Drost N., Giulia C. and van Giersbergen B. Central Asia Emerging from the Shadows. – The Netherlands: Clingendael, 2025. – 79 p.

qarashlarini o'rganib, davlatlarning faoliyatini tashqi siyosatning ustuvorliklari bilan bog'lash;

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosat faoliyatlarini ilmiy jihatdan bosqichlarga bo'lish hamda izohlash uchun nazariy asos yaratish;

O'zbekiston va Ozarbayjon tomonidan amalga oshirilgan muhim tashabbuslar, egallangan asosiy lavozimlar va tashkil etilgan yirik tadbirlarni aniqlash hamda ularning davlat nufuzi va imij shakllantirishga qo'shgan hissasini o'rganish;

qiyosiy-komparativ tahlil qilish asosida O'zbekiston va Ozarbayjonning kelgusida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini optimallashtirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining tashqi siyosati va ko'ptomonlama diplomatiyasi belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston va Ozarbayjon respublikalarining xalqaro tashkilotlardagi faoliyat vektorlari va ularning o'rta kuch sifatida namoyon bo'lishi, o'z mintaqalarida ta'siri, tashqi siyosatidagi o'ziga xosliklari hamda bu boradagi ilg'or tashabbuslari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tarixiy-sistematik, qiyosiy-komparativ, mantiqiy-tahliliy, xronologik, pragmatik, tavsifiy hamda sifatli mazmun tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosat maqsadlarini ilgari surishda xalqaro tashkilotlar vositasida ustuvorlik belgilash strategiyasidan foydalanib muayyan sohalarda mutaxassis, ishonchli hamkor va qudrat markazlari sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib berilgan;

“o'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar” tushunchasini joriy qilish orqali O'zbekiston va Ozarbayjonning “kichik davlat” emas balki “o'rta kuch” maqomiga o'tish jarayonida ekanligi dalillangan;

xalqaro tashkilotlar keng xalqaro auditoriya bilan o'zaro aloqani ta'minlab, “yumshoq kuch” va o'ziga xos o'rin yaratish uchun ideal platforma sifatida xizmat qilishi, bu esa o'z navbatida O'zbekiston va Ozarbayjonning nufuz va imijini shakllantirishga hamda milliy manfaatlariga muvofiq tashqi siyosat yuritish salohiyatlarini oshirishga ko'maklashishi asoslangan;

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatidagi umumiylik va o'ziga xosliklar aniqlanib, ularning o'z mintaqalarida ta'siri, nufuzini oshirish uchun o'xshash geosiyosiy ambitsiyalarga egaligi, ilg'or xalqaro tashabbuslari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar 2016-yildan izohlanib, uning liberal, hamkorlikka moyil va institutsionalist yondashuvni qabul qilgani aniqlangan;

Ozarbayjonning barcha xalqaro tashkilotlar doirasida har bir uchrashuv va imzolangan hujjatlarda Qorabog' masalasi bo'yicha qa'tiyatlilik namoyish etgani va ustuvor ahamiyat bergani asoslangan, qolaversa, 2020-yildan tashqi siyosat ustuvorligining “hududiy yaxlitlikni tiklash”dan Qorabog'dagi “qayta qurish” tomon yo'naltirilishi izohlangan;

O‘zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro muhokamalarni yetaklashga qodirligi, mintaqaviy loyihalarda markaz sifatidagi roli hamda atrof-muhit, energetika, xavfsizlik va savdo sohalaridagi ilg‘or xalqaro tashabbuslari ko‘rsatib berilgan;

O‘zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning jahon hamjamiyatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi birinchi marotaba “strategik narrativlar” nazariyasi yordamida ko‘rsatib berilgan;

O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining nufuzi va imijini mahkamlashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar aniqlangan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston va Ozarbayjonning 7 ta xalqaro tashkilotlardagi faoliyati birinchi bor keng qamrovda o‘rganilgan va bir nechta manbalar (birlamchi hujjatlar) ilk marotaba ilmiy muomalaga kiritilgan;

keng turdagi xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili misolida O‘zbekiston va Ozarbayjonning “o‘rta kuch” statusiga intilayotgan davlatlar bo‘lishi bois xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni rivojlantirish ahamiyati aniqlangan. Ular asosida O‘zbekiston va Ozarbayjonning tashqi siyosat hamda xalqaro munosabatlar tarixini o‘rganish, o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Vatan tarixini o‘rganishdagi yangi yutuqlar, samarali nazariy usullarga tayanilganligi, fanlararo yondashuvning qo‘llanilganligi, O‘zbekiston, Ozarbayjon va xalqaro tashkilotlarning arxivlarida saqlanayotgan mavzuga oid rasmiy hujjatlardan olingan ma‘lumotlar keng turdagi ilmiy adabiyotlar bilan tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy va empirik ma‘lumotlarning uzviyligini ta‘minlagan holda O‘zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tizimdagi o‘rni, ularning diplomatik tashabbuslari ortidagi o‘xshash motivlar, tashqi siyosatni shakllantirish va ilgari surish jarayonlari hamda ularning nufuz va ta‘sirini namoyon etish usullari kabi xalqaro munosabatlarda yetarlicha o‘rganilmagan masalalarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixi bilan bir qatorda davlatning milliy g‘oyasi, siyosiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlarda, ilmiy asarlar yaratishda, oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda, xususan, dissertatsiyadagi umumlashtirilgan ma‘lumotlardan “Xalqaro munosabatlar”, “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” fanlaridan ma‘ruzalar o‘qishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda tashqi siyosatga oid bo‘lgan idoralarning konsepsiya, strategiya va chora-tadbirlarini ishlab chiqishda tadqiqot materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro tashkilotlar

doirasidagi faoliyat vetkorlarini tadqiq etish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosat maqsadlarini ilgari surishda xalqaro tashkilotlar vositasida ustuvorlik belgilash strategiyasidan foydalanib muayyan sohalarda mutaxassis, ishonchli hamkor va qudrat markazlari sifatida namoyon bo'lishi kabi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 14-maydagi 01-33/319-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning O'zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlardagi tarixiy-diplomatik tashabbuslariga oid ma'lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan;

"o'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar" tushunchasini joriy qilish orqali O'zbekiston va Ozarbayjonning "kichik davlat" emas balki "o'rta kuch" maqomiga o'tish jarayonida ekanligiga doir ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha Qo'mitasining Ozarbayjon bilan do'stona xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalarini yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish mavzusidagi konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek madaniy-gumanitar sohalardagi tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha Qo'mitasining 2025-yil 11-iyundagi 14/140-son ma'lumotnomasi). Natijada, har ikki mamlakatning xalqaro maydondagi o'rnini va salohiyati yangi konsepsiya asosida keng ommaga talqin etilgan;

xalqaro tashkilotlar keng xalqaro auditoriya bilan o'zaro aloqani ta'minlab, "yumshoq kuch" va o'ziga xos o'rin yaratish uchun ideal platforma sifatida xizmat qilishi, bu esa o'z navbatida O'zbekiston va Ozarbayjonning nufuz va imijini shakllantirishga, milliy manfaatlariga muvofiq tashqi siyosat yuritish salohiyatini oshirishga ko'maklashishi singari ilmiy tafsilotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 14-maydagi 01-33/319-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning ikki turkiy davlat tashqi siyosatiga oid yangi ma'lumotlarga boy bo'lishiga xizmat qilgan;

O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatidagi umumiylik va o'ziga xosliklar aniqlanib, ularning o'z mintaqalarida ta'siri va nufuzini oshirish uchun o'xshash geosiyosiy ambitsiyalarga egaligi, ilg'or xalqaro tashabbuslari borasidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha Qo'mitasining Ozarbayjon bilan madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash va o'zaro manfaatli tadbirlarni tashkil etish sohalardagi tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha Qo'mitasining 2025-yil 11-iyundagi 14/140-son ma'lumotnomasi). Natijada,

O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro miqyosdagi yutuqlarini yanada kengroq targ‘ib qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatyalardan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan manbalar, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 137 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“O‘zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlardagi ishtirokiga oid nazariy va tashqi siyosiy asoslar” deb nomlangan birinchi bob mazkur davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini tushunish uchun zarur bo‘lgan nazariy-tahliliy yondashuvlar hamda tashqi siyosiy ustuvorliklarni ochib beradi. “Qiyosiy-komparativ tahlilni o‘rnatish uchun nazariy-metodologik asoslar” deb nomlangan birinchi paragraf tegishli atamalar va nazariy ta‘riflarini keltirish orqali ushbu dissertatsiyaning nazariy asosini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston va Ozarbayjon imkoniyatlari jihatdan xalqaro tizimda aksariyatni tashkil etuvchi kichik davlatlar bilan o‘rta kuchga ega davlatlar o‘rtasida o‘rin egallaydi¹⁸. O‘zbekiston va Ozarbayjonning moddiy qudratini o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar va xalqaro tashkilotlarga yondashuvda bir qator o‘xshashliklar mavjudligi sababli ushbu dissertatsiyada O‘zbekiston va Ozarbayjon bir guruhga kiritilgan bo‘lib, “o‘rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar” deb atalgan.

“O‘rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar” atamasi O‘zbekiston va Ozarbayjonni mustaqil tashqi siyosat yuritish qobiliyati, tayyorligi va resurslarga egaligi belgisi sifatida “kuch” jihatiga urg‘u bergan holda tavsiflaydi. Ularning “intilayotgan” deb atalishi esa harbiy va iqtisodiy salohiyatlarining o‘lishi hamda xalqaro jarayonlarda yuqori mavqega erishish uchun aniq diplomatik ambitsiyaga ega bo‘lishlari bilan izohlanadi.

¹⁸ **Izoh:** Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining 2024-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha 189 ta davlat orasida O‘zbekiston 67- va Ozarbayjon 82-o‘rinlarni egallaydi. Shuningdek, harbiy salohiyatni baholovchi 2025-yilgi “Global Firepower Index” reytingida O‘zbekiston 58-, Ozarbayjon esa 60-o‘rinni egallagan (145 ta davlat ichida). Ushbu ko‘rsatkichlar bizga o‘rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar tushunchasini empirik va ob‘ektiv asosda aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston va Ozarbayjon, bir tomondan, o'rta kuchga ega bo'lgan davlatlarga hos tendensiyalarni ham ko'rsatmoqda. Masalan, ular ko'p tomonlama diplomatiya, vositachilik, koalitsiya tuzish va tor doirada ixtisoslashgan (niche) diplomatiya bilan faol shug'ullanib, o'z ta'sirini sezdirishi mumkin bo'lgan global boshqaruvning muayyan sohalariga e'tibor qaratadi¹⁹. Tahliliy nuqtai nazardan, ko'p tomonlama va "niche" diplomatiya bilan shug'ullanish O'zbekiston va Ozarbayjonning o'rta kuchga ega davlatlar toifasiga o'tish jarayonini mustahkamlashda muhim qadam.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar sifatida namoyon bo'lish uchun "strategik narativ"lardan²⁰ foydalanadilar. "Davlatlar strategik narrativlar vositasida muammo shakllantiradi, unga yechim taklif qiladi va shu orqali o'zining ijobiy qiyofasini yaratishga hamda tashqi siyosiy maqsadlariga erishishga urinadi²¹." Strategik narativlar legitimlik o'rnatish, xalqaro darajadagi masalalarga ta'sir ko'rsatish, davlatlar o'zlari olib borgan siyosat va faoliyatlarga ma'no yuklash, boshqa davlatlarning qarash va tasavvurlarini boshqarish hamda diskursiv muhitni o'zgartirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda O'zbekiston va Ozarbayjonning (aktorlar) tashqi siyosiy ustuvorliklarini (muammolar) xalqaro tashkilotlar orqali (muhit/sahna) ko'p tomonlama diplomatiya (vosita) va "o'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar" diskursi (qurb/qobiliyat) yordamida amalga oshirishi strategik narrativlarning elementlari deb aniqlangan.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'z narativlarini keng targ'ib²² etish uchun xalqaro tashkilotlarning maqsadga muvofiqligiga ishonadi. Xalqaro tashkilotlarda davlatning imiji va obro'sini keng ko'lamli strategiyalardan (masalan, ko'p tomonlama tadbirlarni o'tkazish) foydalangan holda puxta va tizimli shakllantirish davlatning ijobiy qabul qilinishiga, mutaxassis, vositachi, xolis va ishonchli hamkor sifatida ko'rinishiga olib keladi. O'rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar o'zlarining cheklangan resurslarini eng ustuvor masalalarga yo'naltirib, global boshqaruvga ta'sir ko'rsatish va samarali natijalarga erishish uchun ko'p tomonlama diplomatiyaga singdirilgan strategik narrativlardan foydalanadilar²³.

Birinchi bobning "O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatini vujudga keltirgan omillar, ustuvorliklar va strategik narrativlar" deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekiston va Ozarbayjonning tashqi siyosati o'rganilgan bo'lib,

¹⁹ Aydin U. *Emerging Middle Powers and the Liberal International Order*. – Oxford University Press, 2021. – Pp. 1379–1380.

²⁰ **Izoh:** "Narrativ" so'zi (lotincha *narrare* – so'zlab berish, hikoya qilish) adabiy termin bo'lib, xalqaro munosabatlarda davlat siyosatini o'ziga xos yo'nalish va maqsadlar yordamida hikoya qilish demakdir.

²¹ Zhukova E., Sundström M.R. and Elgström O. *Feminist Foreign Policies (FFPs) as Strategic Narratives*. – *Review of International Studies*, 2021. – Pp. 1-22.

²² **Izoh:** Narrativ tarqatish jarayoni strategik narrativlar nazariyasining muhim bir jihatidir. Bu narrativlarni nutqlar, xalqaro tadbirlar, forumlar yoki ko'p tomonlama diplomatiya kabi turli kanallar orqali yetkazib berishni nazarda tutadi (Miskimmon, O'Loughlin, and Roselle, *Forging the World*, 39–40).

²³ Karns M.P., Mingst K.A. and Stiles K.W. *The Challenges of Global Governance*. – London: Lynne Rienner, 2015. – P. 11; Wivel A. and Pedi R. *The Power (Politics) of the Weak Revisited: Realism and the study of small-state foreign policy*. / *Agency, Security and Governance of Small States: A Global Perspective*. – London: Routledge, 2023. – P. 23; Hasanov A. *Присоединение Азербайджана к системе международных отношений: формирование и развитие внешнеполитической деятельности*. – Баку: Zərdabi, 2013. – С. 571–72.

ularning tashqi siyosatini belgilovchi omillar va ustuvor yo‘nalishlar normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy bayonotlar asosida yoritib berilgan.

Tarixan, O‘zbekistonning 2000-yillarning boshlaridan 2016-yilgacha bo‘lgan tashqi siyosati xavfsizlik asosli, iqtisodiy avtarkiya va texnokratiya bilan tavsiflangan bo‘lib o‘z imkoniyatlariga tayanish prinsipi bilan qat’iy ajralib turgan. Bunday yondashuv ikki tomonlama diplomatiyaga ustunlik bergan tashqi siyosatga olib keldi. Biroq, Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida O‘zbekistonning tashqi siyosati xalqaro tashkilotlarga nisbatan konstruktiv va hamkorlikka moyil pozitsiyaga o‘tdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston diplomatiyasi bir vaqtning o‘zida ko‘plab xalqaro subyektlar bilan aloqalarni yuksak darajada tashkil etmoqda. Masalan, birgina 2022–2023-yillarda O‘zbekiston uchta nufuzli xalqaro tashkilotga raislikni o‘z zimmasiga olgan edi.

O‘zbekiston tashqi siyosiy doktrinasining shakllanishi mustaqillikka erishgandan so‘ng 1996-yilda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan boshladi. Ushbu qonunning 4-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish bo‘lgan²⁴. Keyinchalik ushbu qonun 2012-yilda “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” bilan yangilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” farmoni bilan yangi davr boshlandi. Harakatlar strategiyasida tashqi siyosiy manfaatlarni himoya qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti sifatidagi mavqeini mustahkamlash, muvozanatli, konstruktiv tashqi siyosat yuritishga erishish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Harakatlar strategiyasidan kelib chiqib, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasida 73-maqсад O‘zbekistonning boy ilmiy merosini xalqaro hamkorlik orqali targ‘ib qilish, 79-maqсад dolzarb ekologik muammolarni hal qilish, 94-maqсад Markaziy Osiyoda barcha sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan²⁵. Nihoyat, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish, xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va barqaror muloqotlar olib borish zarurligi alohida qayd etilgan.

Ushbu paragrafda O‘zbekiston tashqi siyosatining olti asosiy yo‘nalishi ta’kidlab o‘tilgan. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning quyidagi ro‘yxati tuzilishi mumkin: 1) Markaziy Osiyo; 2) Afg‘onistonni reabilitatsiya qilish; 3) Orol dengizi; 4) xavfsizlik; 5) savdo-iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik; va 6) xalqaro tashkilotlar va boshqa barcha davlatlar bilan hamkorlik.

O‘zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatini belgilovchi omillar qatoriga

²⁴ Закон Республики Узбекистан «Об основных принципах внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан». 336–I § (1996). // <https://lex.uz/docs/39322>; Закон Республики Узбекистан «Об Оборонной доктрине Республики Узбекистан». ЗРУ-458 § (2018). // <https://lex.uz/docs/3495906>.

²⁵ Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы». УП-60 § (2022). // <https://lex.uz/ru/docs/5841077>.

ularning hududiy-geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, rivojlanib borayotgan iqtisodiyoti hamda harbiy-siyosiy salohiyati kiradi. Xususan, uglevodorod resurslarini eksport qilish Ozarbayjonga ko'plab xalqaro o'yinchilar bilan faol tashqi siyosat olib borish imkoniyati berdi. Muvozanatli tashqi siyosat yoki "ko'p vektorlilik" 1990-yillar boshida Haydar Aliyev tomonidan o'tkir inqirozlar va mamlakat mavjudligiga tahdidlar sharoitida omon qolish strategiyasi sifatida ko'rilgan²⁶. Haydar Aliyev muvozanatli va ko'p vektorli tashqi siyosat yuritishning dolzarbligini his qilgan bo'lsa, Ozarbayjon o'z hududlarini qaytarib olishda harbiy muvaffaqiyatga erishgandan so'ng Ilhom Aliyev kuchlar muvozanatini saqlab qolishdan ko'ra milliy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yish uchun qat'iyroq pozitsiya egallay boshladi.

Tashqi siyosat sohasidagi muhim hujjatlardan biri 2007-yil may oyida qabul qilingan "Ozarbayjon Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasi" bo'ldi. Ta'kidlash joizki, Ozarbayjon tashqi siyosatida Yevro-Atlantika tuzilmalariga bo'lgan qarashlarning o'zgarishi va hududiy yaxlitlikni tiklashning amalga oshirilganligi sababli ushbu hujjat kuchini yo'qotgan hisoblanadi. Milliy xavfsizlik konsepsiyasidan farqli o'laroq, 2010-yil iyun oyida qabul qilingan "Ozarbayjon Respublikasining harbiy doktrinasini" qonunida Yevro-Atlantika institutlari va Ozarbayjon o'rtasidagi kelajakdagi munosabatlarni tasvirlash uchun "integratsiya" so'zi ishlatilmagan. Ozarbayjon Harbiy doktrinasida "xalqaro tashkilotlar va barcha davlatlar tomonidan tajovuzkorni [Armaniston] qoralash va izolyatsiya qilish"²⁷ muhimligi ta'kidlangan.

Biroq, hozirda Ozarbayjon tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarida tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ozarbayjon o'ttiz yillik mojarodan so'ng 2020-yilda Ikkinchi Qorabog' urushida g'alaba qozonib, o'zini mustaqil ravishda muhim harbiy qudrat sifatida ko'rsatdi. Natijada, Ozarbayjonning Janubiy Kavkazdagi mavqei mustahkamlandi va boshqa masalalar bo'yicha tashqi siyosat yuritish imkoniyati tug'ildi. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini qayta shakllantirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha birinchi urinishlarni 2021-yil fevral oyida qabul qilingan "Ozarbayjon 2030: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning milliy ustuvor yo'nalishlari" hujjatida kuzatish mumkin. Ushbu hujjat mamlakatni yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan, ayniqsa, Qorabog' mintaqasini rivojlantirish bo'yicha samarali hamkorlik qilishga undamoqda. Bu bilan bir qatorda, "Ozarbayjon 2030" hujjatida "toza atrof-muhit va yashil rivojlanish" yo'nalishi beshta milliy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida kiritilgan. Barqaror rivojlanishning xalqaro obro'-e'tibor uchun muhimligi Ozarbayjon tomondan ushbu hujjatda e'tirof etilmoqda.

Ushbu paragrafda Ozarbayjonning hozirgi tashqi siyosatining to'rtta asosiy yo'nalishi, shuningdek, kuchini yo'qotgan bitta ustuvor yo'nalish (Qorabog' mojarosini hal qilish) aniqlangan. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning quyidagi ro'yxati tuzilishi mumkin. Jumladan, birinchisi – Qorabog'ni mojarodan keyin tiklash, ikkinchisi – Energiya va mintaqalararo

²⁶ Strakes J.E. Azerbaijan and the Non-Aligned Movement: Institutionalizing the "Balanced Foreign Policy" Doctrine. // Istituto Affari Internazionali. – 2015. – P. 3-4.

²⁷ Decree of the National Assembly of the Republic of Azerbaijan "Azərbaycan Respublikasının Hərbi doktrinası". (2010). // <https://anl.az/download/meqale/azerbaycan/2010/iyun/124735.htm>.

bog‘liqlikdan iborat. Uchinchisini – Toza atrof-muhit va yashil o‘shish, to‘rtinchisini – Xalqaro tashkilotlar va boshqa barcha davlatlar bilan hamkorlik tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘rta kuch statusiga intilayotgan davlatlar tomonidan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishning tarixiy qonuniyatlari va o‘zgaruvchan dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston va Ozarbayjonning yettita asosiy xalqaro tashkilot bilan o‘zaro aloqalari tarixiy kontekstda ochib berilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ikkala davlat ham o‘z tashqi siyosiy maqsadlarini ilgari surish uchun “forum shopping”²⁸ deb, atalgan eng maqbul xalqaro maydonni ya’ni xalqaro tashkilotni tanlashga ahamiyat beradi.

Ikkinchi bobning “BMT, IsHT va Qo‘shilmaslik harakati kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyat” deb nomlangan birinchi paragrafida O‘zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro tashkilotlar bilan faoliyatlarining muhim bosqichlari qiyosiy-xronologik tartibda tahlil qilingan.

1992-yil 6-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning o‘sha paytdagi Bosh kotibi Butros Butros-G‘oliy nomiga rasmiy murojaat yo‘llab, O‘zbekistonni tashkilotning to‘laqonli va teng huquqli a‘zosi sifatida qabul qilishni so‘radi²⁹. O‘zbekiston va Ozarbayjon 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘ldilar.

1993-yil oktabr oyida Xolid Malik rahbarligida BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi o‘z faoliyatini boshladi³⁰. Hozirgi kunda O‘zbekistondagi BMT idoralari tarkibiga 26 ta BMT agentligi, jamg‘arma va dasturlari kiradi, bu esa mamlakatda BMTning keng ko‘lamli ishtirokini ko‘rsatadi. Ozarbayjondagi BMT idoralari esa 10 ta BMT agentligi, jamg‘armasi va dasturlaridan iborat bo‘lib, bu ko‘rsatkich O‘zbekistondagiga nisbatan ancha kam³¹.

O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslar BMT doirasida keng xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘lgan. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. “Ta’limdan umumiy foydalanishni ta‘minlash, savodsizlik va jaholatni bartaraf etish”ga³² qaratilgan mazkur rezolyutsiya 50 dan ortiq davlatning qo‘llab-quvvatlashi bilan qabul qilindi.

Ozarbayjon esa BMT organlari tomonidan qabul qilingan bir qator

²⁸ Karns M.P., Mingst K.A. and Stiles K.W. The Challenges of Global Governance. – London: Lynne Rienner, 2015. – P. 24.

²⁹ Абдимўминов О. Марказий Осиё ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Тошкент: Akademnashr, 2025. – С. 70.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти Ислон Каримов номидаги илмий-матрифий ёдгорлик мажмуаси Илмий-тадқиқот ва таълим маркази жорий архиви. 2023 йил сентябрь.

³⁰ Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: Муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. – Тошкент: Hamkornashr, 2021. – Б. 211-215.: O‘zMA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 55-yig‘ma jild, 17–18-varaqlar.

³¹ UN Entities in Uzbekistan. / United Nations Uzbekistan. <https://uzbekistan.un.org/en/about/un-entities-in-country>; UN Entities in Azerbaijan. / United Nations Azerbaijan. // <https://azerbaijan.un.org/en/about/un-entities-in-country>

³² Uzbekistan-UN: Cooperation for Universal Sustainable Development. // <https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2023/10/02/uzbekistan-un-cooperation-for-universal-sustainable-development/>.

rezolyutsiyalarning homiysi sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu rezolyutsiyalar “Bedarak yo‘qolgan shaxslar” hamda “Qurolli mojarolar davomida garovga olingan va keyinchalik qamoqqa olingan ayollar va bolalarni ozod etish” kabi masalalarni qamrab oladi. Ozarbayjon, ayniqsa, qurolli mojarolar sharoitida inson huquqlarining ommaviy ravishda buzilishi holatlariga xalqaro hamjamiyat e’tiborini yanada kuchaytirish zarurligini ta’kidlab kelmoqda³³.

Shunga qaramay, Prezident Ilhom Aliyev BMTning o‘z rezolyutsiyalarini ijro etish borasidagi imkoniyatlari cheklanganidan noroziligini bildirgan. Xususan, Ozarbayjon hududlaridan Armaniston qo‘shinlarini olib chiqishni talab qilgan BMT Xavfsizlik kengashining 4 ta rezolyutsiyasi amalda bajarilmaganini tanqid qilgan³⁴. Prezident Shavkat Mirziyoyev esa BMTning nizolar va mojarolarni hal etishdagi markaziy roliga qat’iy ishonch bildirib kelmoqda³⁵. Shuningdek, Birinchi Prezident Islom Karimov 2000-yilda BMT Bosh assambleyasining Mingyillik sammitida so‘zlagan nutqida BMTning mintaqaviy va global tahdidlarga qarshi kurashish salohiyatini mustahkamlash hamda bosh kotib vakolatlarini kengaytirish zarurligini ilgari surgan³⁶.

Ozarbayjon mustaqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay, 1991-yil dekabr oyida Islom hamkorlik tashkilotiga (IsHT) a’zo bo‘lgan. IsHT Ozarbayjon qo‘shilgan birinchi xalqaro tashkilotdir. Bundan farqli o‘laroq, O‘zbekiston IsHTga 1996-yil oktyabr oyida a’zo bo‘ldi va tashkilotning jarayonlarida nisbatan kamfaol ishtirokni saqlab qoldi. Masalan, O‘zbekiston 2017-yilda Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkilotiga (ICESCO) to‘laqonli a’zo bo‘lgan bo‘lsa, Ozarbayjonning ICESCOga a’zo bo‘lishi 1991-yilga to‘g‘ri keladi. Ozarbayjonning mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki davrda IsHT bilan faol hamkorlikka kirishishining asosiy sabablaridan biri shundaki, ushbu tashkilot Qorabog‘ mojarosi bo‘yicha xalqaro maydonda muammoni yoritishda muhim vositaga aylangan edi.

O‘zbekiston 2016-yili IsHT Tashqi ishlar vazirlari kengashiga raisligi davrida ayniqsa “Johillikka qarshi ma’rifat” shiori bilan Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish kabi aniq tashabbuslar ko‘rsatdi. Natijada, O‘zbekiston “oliyjanob maqsadlarni ilgari suruvchi kuch” sifatida tan olindi. Ozarbayjon esa 2017-yil may oyida 54 ta davlatdan sportchilar qatnashgan, ulkan tadbir bo‘lgan IV Islom birdamlik o‘yinlarini tashkil etdi. Ushbu tashabbus Ozarbayjonning islom olamini birlashtiruvchi kuch sifatida obro‘cini oshirdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay, 1992-yil sentabr oyida Qo‘shilmaslik harakatiga (QH) a’zo bo‘ldi. Ozarbayjon esa 2011-yil may oyida qo‘shildi. QHga qo‘shilish orqali Ozarbayjon Qorabog‘ mojarosi bo‘yicha o‘z xavotirlarini xalqaro hamjamiyatga yetkazish uchun qo‘shimcha platformaga ega

³³ International Organisations. / Ministry of Foreign Affairs. // <https://mfa.gov.az/en/category/xin.gov.az>.

³⁴ “Ilham Aliyev Received Participants of the 53rd Meeting of CIS Council of Heads of Security Agencies and Special Services.” / President of the Republic of Azerbaijan. – 2023. // <https://president.az/en/articles/view/61538>.

³⁵ “Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Meeting of the Heads of the Member-States of the Shanghai Cooperation Organization.” / President of the Republic of Uzbekistan. – 2023. // <https://president.uz/en/lists/view/6457>.

³⁶ Jurayev H., Iminov B., Begimqulova I., Oxunjonova Sh. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent: 2023. – 206 b.

bo'lishni maqsad qilgan. Nisbatan yaqinda qo'shilganiga qaramay, Ozarbayjon 2019-yilda Boku sammiti chog'ida QH raisligini qabul qilib oldi va 2023-yilgacha harakatga yetakchilik qildi. O'zbekistonning raisligi esa mamlakat tarixida ilk bor 2027-yildan 2029-yilgacha bo'lib o'tadi.

Ozarbayjon QHga raisligi davrida 120 ta davlat hamda 42 ta xalqaro tashkilotdan yuqori darajadagi vakillarni qabul qildi. Ozarbayjon pandemiyadan keyingi tiklanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida QH doirasida Afrika va rivojlanayotgan kichik orol davlatlari uchun ikkita global tashabbusni ilgari surdi va ushbu tashabbuslarning birinchi donori sifatida har biriga 1 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratdi. 2021-yilda Ozarbayjon QHga a'zo davlatlar parlamentlari o'rtasida qonunchilik sohasida hamkorlikni kuchaytirish uchun QH Parlament tarmog'ini tashkil etishga boshchilik qildi.

Ikkinchi bobning "TDT, IHT, MDH va ShHT kabi mintaqaviy tashkilotlar doirasida faoliyat" deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekiston va Ozarbayjonning mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatlarining muhim bosqichlari qiyosiy-xronologik tartibda tahlil qilingan.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) yaqin tarixda, ya'ni 2009-yil oktabr oyida Ozarbayjonda tashkil etilgan. Aslida, Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining birinchi sammiti Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va Turkiya ishtirokida 1992-yil oktabr oyida Anqarada bo'lib otgan. Biroq, 2000-yillarda O'zbekistonning turkiy hamkorlik formatidagi ishtiroki ancha cheklanib, mamlakatning keyingi ko'plab sammitlar va tashabbuslardan uzoqlashishiga sabab bo'ldi. Umumiy siyosiy vaziyat tufayli O'zbekistonning sust ishtiroki tashkilotni tuzish jarayonini kechiktirdi. O'zbekistonning tashqi siyosatidagi o'zgarish esa Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida yuz berdi. Natijada, 2019-yil sentabr oyida O'zbekiston TDTga rasmiy qo'shildi.

2018-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan TDTning VI sammitida Ozarbayjon Turkiy davlatlar parlament assambleyasi hamda Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi (TMMJ) uchun maxsus Kotibiyat binolarini ajratish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. 2023-yilda O'zbekistonning TDT raisligi davomida hamkorlik yo'nalishlari 30 dan ortiq sohani qamrab oldi³⁷. Hozirgi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon tashkilot maqsadlarini ilgari surishga qat'iy intilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev global o'zgarishlar sharoitida turkiy dunyoning ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlamoqda³⁸.

O'zbekiston va Ozarbayjon Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (IHT) 1992-yil noyabr oyida a'zo bo'lgan. Lekin, O'zbekiston 2026-yil holatiga ko'ra IHT Savdo va taraqqiyot banki a'zosi emas, Ozarbayjon esa 2013-yil fevral oyida bankka qo'shilib, uning aksiyadoriga aylangan. Ozarbayjon 2006 va 2012-yillarda IHT sammitlariga mezbonlik qilgan. Ozarbayjon davlat rahbari darajasida IHTning sammitlarida 14 marta (jami 16 ta sammit bo'lgan) ishtirok etgan. Taqqoslash uchun, O'zbekiston davlat rahbarlari ushbu sammitlarning 8 tasida ishtirok etgan.

³⁷ "Address by the President of the Republic of Uzbekistan H.E. Shavkat Mirziyoyev at the Tenth Summit of the Heads of State of the Organization of Turkic States." – 2023. // <https://president.uz/en/lists/view/6831>.

³⁸ "New Opportunities for Integration and Cooperation." / The Government portal of the Republic of Uzbekistan. – 2019. // <https://old.gov.uz/en/news/view/24569>.

O'zbekiston 2023-yil noyabr oyida birinchi bor IHTning yuqori darajadagi sammitiga mezbonlik qildi. 2016-yilgacha O'zbekiston IHTni sof iqtisodiy tashkilot sifatida ko'rib, iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish g'oyasiga tayangan edi. Bugungi kunda O'zbekiston IHT mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari bilan birga chuqur tarixiy va madaniy aloqalarga ham urg'u bermoqda.

2021-yil mart oyida IHT Tadqiqot markazi Nizomi imzolandi va Ozarbayjon ushbu markazga mezbon davlat qilib belgilandi. Markazning asosiy maqsadi strategik rejalashtirish va empirik dalillarga asoslangan mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Bu bilan bir qatorda, 2021-yil noyabr oyida IHT mintaqasi uchun Toza energiya markazi Nizomi qabul qilindi va yana Ozarbayjon yangi markazga mezbonlik qilish uchun tanlandi.

Ozarbayjon 1993-yilning sentabrigacha Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga (MDH) a'zo bo'lmagan, O'zbekiston esa asoschi davlatlarda biri hisoblanadi. O'zbekiston va Ozarbayjonning MDHga nisbatan rasmiy qarashlari tashkilotni mintaqaviy hamkorlikning ijobiy kuchi sifatida namoyon etadi. Biroq, ilmiy manbalarga ko'ra, MDH postsovet davlatlari o'rtasida haqiqiy hamjihatlikni ta'minlash yo'lidagi cheklangan qobiliyati tufayli o'z integratsiya maqsadlarini to'liq amalga oshira olmagan³⁹. Masalan, tashkilot hujjatlarining kamdan-kam ratifikatsiya qilinishi sababli MDH doirasidagi integratsiya to'siqlarga uchragan. Bir tadqiqotga ko'ra, 1998-yil martigacha tashkilot jarayonlarida eng kam ishtirok etgan davlatlar qatoriga Ozarbayjon va O'zbekiston kirgan⁴⁰.

2023-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan MDH yig'ilishida Prezident Mirziyoyev import o'rnini bosish dasturlarini o'zaro muvofiqlashtirish, qo'shma logistika markazlarini qo'llab-quvvatlash hamda MDH doirasida elektron tijoratni rag'batlantirish zarurligini ta'kidladi⁴¹. MDH tarkibida Ozarbayjon gumanitar, madaniy va sport sohalaridagi tashabbuslarga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakat gumanitar yo'nalishdagi faoliyat boshqa sohalardagi integratsiyani jadallashtirishga xizmat qiluvchi "multiplikator" ta'sirga ega deb hisoblaydi. Ozarbayjonning ushbu sohadagi sa'y- harakatlari 2025-yil sentabr oyida MDHning uchinchi o'yinlariga mezbonlik qilish tashabbusida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ushbu paragrafda Ozarbayjonning a'zoligi bo'lmasa-da, O'zbekiston a'zo bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti ham tahlil qilingan. Ozarbayjon o'z ta'sir doirasini kengaytirish va mintaqaviy hamkorlikni mustaqil ravishda ilgari surish uchun ShHTning muloqot bo'yicha hamkor maqomini qo'lga kiritgan. O'zbekiston esa ShHT doirasida institutsional yetakchilik va xavfsizlikka yo'naltirilgan hamkorlikka ustuvor ahamiyat bergan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Strategik narrativlarni ilgari surishda xalqaro tashkilotlarning maydon sifatidagi o'rne”** deb atalgan. Unda O'zbekiston va Ozarbayjonning ustuvor yo'nalishlarda global tashabbus ko'rsatish,

³⁹ Kubicek P. The Commonwealth of Independent States: An Example of Failed Regionalism? // Review of International Studies. – 2009. – Pp. 237–238; Laruelle M. Factoring the Regional Impact of Uzbekistan's Withdrawal from the CSTO. // Foreign Policy and Civil Society Program, 2012. – 3 p.

⁴⁰ Başlar K. The Commonwealth of Independent States: Decayed within a Decade. // The Turkish Yearbook of International Relations. – Ankara, 2001. №32. – P. 123.

⁴¹ “Address by the President of the Republic of Uzbekistan Mr. Shavkat Mirziyoyev at the Meeting of the CIS Heads of State Council.” – 2023. // <https://president.uz/en/lists/view/6753>.

yetakchilik qilish hamda siyosiy jarayonlarga hissa qo'shishi o'rganilgan. Uning "O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasida olib borayotgan tashabbuslari zaminida ustuvorliklariga erishishi" deb nomlanuvchi birinchi paragrafida mamlakatning tashqi siyosiy ustuvorliklarini ilgari surish maqsadida xalqaro tashkilotlardagi a'zolidan qanday foydalanayotgani hamda bu jarayon orqali uning xalqaro maydondagi o'ziga xosligini qanday shakllantirayotgani tahlil qilingan.

"O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik kamarini yaratish"ni O'zbekiston o'z tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi etib e'lon qilgan⁴². Natijada, mamlakat rahbari Markaziy Osiyo mamlakatlarini turli sohalarda yaqinlashtirish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish taklifini ilgari surgan⁴³. 2022-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan ShHTning Samarqand sammiti chog'ida Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoni tashkilotning geografik o'zagi sifatida belgilagan⁴⁴.

O'zbekiston Afg'onistonni mintaqaning ajralmas qismi ekanligiga ishonadi. O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik jarayonlariga ko'maklashish borasidagi tajribasi o'tgan asrning 90-yillari boshlariga borib taqaladi. O'zbekiston "6+2" formatini ishlab chiqib, qator uchrashuvlar o'tkazishni boshlagan. Bundan tashqari, O'zbekiston Afg'oniston bilan muloqot qilish uchun TDT va ShHTda muloqot va maslahatlashuv formatlarini tiklashni taklif qilgan. Ushbu tashabbuslar "O'zbekistonning mintaqadagi barqarorlashtiruvchi imijini" yanada kuchaytirgan⁴⁵.

O'zbekiston hamda atrof-muhitga befarq bo'lmagan davlat sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining 1995-yil sentabr oyida O'zbekistonda bo'lib o'tgan yig'ilishida "Nukus deklaratsiyasi" imzolangan. Deklaratsiya Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro konventsia tuzishga chaqirgan. 2018-yil noyabr oyida tashkil etilgan BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasiga moliyaviy jihatdan eng katta hissani O'zbekiston qo'shmoqda.

Markaziy Osiyoning global transport tarmog'idagi strategik o'rnini oshirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT huzurida "Transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy markaz" tashkil etishni taklif etdi⁴⁶. 2021-yil iyul oyida Toshkentda bo'lib o'tgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik, tahdidlar va imkoniyatlar" nomli xalqaro konferensiyada O'zbekiston Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan temiryo'l orqali bog'lovchi Trans-Afg'on transport yo'lagini qurish tashabbusini e'lon qildi.

⁴² Foreign Policy and Safety. // https://gov.uz/activity_page/foreign_policy.

⁴³ "Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на международной конференции «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания» в Самарканде." – 2017. // <https://president.uz/ru/lists/view/1227>.

⁴⁴ The SCO Samarkand Summit: Dialogue and Cooperation in an Interconnected World. – 2022. // <https://president.uz/en/lists/view/5495>.

⁴⁵ Fazendeiro B.T. Uzbekistan's Foreign Policy: The Struggle for Recognition and Self-Reliance under Karimov. – London: Routledge, 2018. – 153 p.

⁴⁶ "Speech by President Shavkat Mirziyoyev at the 75th Session of the United Nations General Assembly." – 2020. // <https://president.uz/en/lists/view/3851>.

So‘nggi bobning ikkinchi paragrafi “O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi tashabbuslari orqali ustuvorliklarini ilgari surishi” deb nomlanib, O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlardagi tashabbuslarini ustuvorliklari doirasida ko‘rib chiqadi.

Dastlab, O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishi Armanistonning soxta da‘volariga qarshi kurashish va hududiy yaxlitligi hamda suverenitetiga qarshi kuch ishlatilishini to‘xtatishdan iborat bo‘lgan. O‘zbekistonning 2012-yildan 2013-yilgacha BMTXKga a‘zo bo‘lishdek tarixiy yutug‘i mamlakatning Qorabog‘ mojarosini xalqaro hamjamiyatning birinchi kun tartibiga olib chiqish borasidagi sa‘y-harakatlarini faollashtirdi. 2012-yil yanvar oyida IsHT Parlament ittifoqi O‘zbekistonda tinch aholiga qarshi uyushtirilgan Xo‘jali fojiasini xalqaro organ darajasida tarixda birinchi bor genotsid akti sifatida rasman tan oldi.

Bugungi kunda Qorabog‘da faol mintaqaviy qurilish va tiklanish bilan bir qatorda, O‘zbekiston butun mamlakat bo‘ylab yashil rivojlanishga urg‘u bera boshladi va iqlim bo‘yicha muzokarlarda o‘zining global rolini kuchaytirdi. Orol dengizi inqiroziga javoban O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqlim va atrof-muhit muhofazasi masalasida siyosiy narrativ shakllantira boshlagan bo‘lsa, O‘zbekiston iqlim bo‘yicha o‘ziga maxsus narrativlarni ishlab chiqishga yaqinda kirishdi. 2024-yil noyabr oyida BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasini (COP29) o‘tkazilishi O‘zbekistonning iqlim bo‘yicha global muzokaralar va siyosatga ta‘sir ko‘rsatish borasidagi eng muhim sa‘y-harakatlaridan biridir. COP29 sammitida 80 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari O‘zbekistonda jamlanadi.

Shunga qaramay, energetika diplomatiyasi hamon O‘zbekiston tashqi siyosati arsenalida muhim vosita bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston o‘z energetika sektoridan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zini tranzit markazi sifatida ko‘rsatish uchun sharq-g‘arb energetika infratuzilmasini rivojlantirishda foydalanadi. O‘zbekiston, shuningdek, o‘z energiya resurslaridan yangi hamkorliklar o‘rnatish uchun tashqi siyosat vositasi sifatida foydalanadi. Masalan, “Kaspiy yashil energiya yo‘lagi” loyihasi yakunlangandan so‘ng O‘zbekiston va Qozog‘istonda ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiyani O‘zbekiston orqali Yevropaga yo‘naltirishni kafolatlamog‘da. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida, jumladan IHTda, “Zangazur yo‘lagi” tashabbusini bayon qilib, mintaqadagi asosiy geosiyosiy ishtirokchilarning e‘tiborini ushbu yangi transport yo‘nalishiga qaratmoqda.

XULOSA

“O‘zbekiston va O‘zbekiston Respublikalarining xalqaro tashkilotlardagi faoliyat vektorlari va ularning qiyosiy tahlili” mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston va O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida qo‘mita faoliyatlarida ishtirok etishi, raisligi, sammitlarga mezbonlik qilishi, rezolyutsiyalar ilgari surishi, tashabbuslarga homiylik qilishi bilan global

diplomatik manzarani shakllantirmoqda, xalqaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirmoqda hamda o'zlarining tashqi siyosiy muammolariga global masala sifatida yechim topmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjonning ko'p tomonlama tashabbuslar bilan chiqishi tasodifiy emas, balki har ikki davlat ham xalqaro tashkilotlarni tashqi siyosat faoliyatlarini qo'llab-quvvatlay oladigan samarali aktor sifatida e'tirof etadi.

2. O'zbekiston 1991-yildan 2000-yillarning boshlarigacha institutsional darajada mintaqaviy integratsiyaga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirib, Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish hamda ko'p tomonlama maslahatlashuv mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratdi. 2000-yillarning boshlaridan 2016-yilgacha esa O'zbekiston ko'p tomonlama hamkorlikda ehtiyotkor va xavfsizlikka yo'naltirilgan yondashuvni qabul qilib, barqarorlikni ta'minlash, terrorizmga qarshi hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini tanlab amalga oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. O'zbekiston 2017-yildan esa xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etib, mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlik va iqlim bo'yicha narrativlar asosida moslashuvchan tashqi siyosat yondashuvini qo'llab kelmoqda.

3. Ozarbayjon uchun 2020-yilgacha tashqi siyosatning asosiy omili Qarabog'ni bosqinchilikdan ozod qilish bo'lgan. Aynan shu maqsadda, Ozarbayjon barcha diplomatik vositalardan foydalangan holda Qarabog' masalasining yoritilishini barcha tashkilotlardan qat'iy talab qilgan. 2020-yildan buyon esa Ozarbayjon xalqaro tashkilotlar doirasida e'tiborni mintaqani tiklash hamda iqlim masalalari bo'yicha faol tashviqot yuritishga yo'naltirgan.

4. Ozarbayjon tashqi siyosatining 2020-yildan boshlab diversifikatsiyalanishi, shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonning ko'p tomonlama hamkorlikka yuz tutishi ularning mintaqaviy va global dinamikalariga strategik moslashuvini ko'rsatadi.

5. O'zbekiston va Ozarbayjon Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasining ikki muhim o'yinchilari bo'lib, tashqi siyosatda o'zligini shakllantirish maqsadida strategik narrativlardan foydalanadi. Shunday qilib ular xalqaro miqyosda o'ziga xos ustuvor yo'nalishlarni yaratadi. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlariga mos narrativlar tuzish orqali O'zbekiston va Ozarbayjon xalqaro tizimda o'z yo'lini belgilab olmoqda hamda o'zlarini "o'rta kuch" statusiga intilayotgan davlatlar sifatida namoyon qilmoqda.

6. O'zbekiston xalqaro maydonda o'zligini quyidagicha shakllantirmoqda. Xususan, birinchisi – Markaziy Osiyo bo'yicha olib borilayotgan siyosatiga mos ravishda, ishonchga asoslangan hamkorlik va taraqqiyotni ta'minlaydigan kuchdir. Ikkinchisi – Afg'oniston bo'yicha siyosatiga mos ravishda, eng kam rivojlangan mamlakatlarga barqarorlik va farovonlik olib keluvchi kuch sanaladi. Hamda Orol dengizi bo'yicha siyosatiga mos ravishda, atrof-muhitni barqaror boshqarishni ilgari suruvchi kuch hamdir. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar minbaridan xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, ekologik tiklanish, barqaror rivojlanishga erishish, amaliy-texnik yordam ko'rsatish, shuningdek, turizm, transport va logistika sohalariga investitsiya kiritish kabi yo'nalishlarda bir qator tashabbuslarni ilgari surgan.

7. Ozarbayjon xalqaro maydonda o'zligini Qarabog' bilan bog'liq siyosatiga mos ravishda konfliktidan keyingi tiklanish va bu jarayonlarni boshqarish bo'yicha tajribaga ega, energiya siyosatiga mos ravishda mintaqalarni bog'lovchi boy tabiiy resurslarga ega ishonchli tranzit markazi sifatida faoliyat yurituvchi, hamda toza atrof-muhitga oid siyosatiga mos ravishda yashil iqtisodiy o'sishni ilgari suruvchi kuch sifatida shakllantirmoqda. Jumladan, Ozarbayjon xalqaro tashkilotlardan keng miqyosda foydalanib, Qarabog' mojarosini hal etish borasidagi sa'y-harakatlarini kuchaytirgan, hududlarining bosib olinishi natijasida yuzaga kelgan xavfsizlik masalalarini ilgari surgan, shuningdek, ekologik yetakchilik, mintaqaviy energetika, savdo va transport loyihalarida e'tirofga erishgan.

8. O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatini belgilashda ularning geosiyosiy joylashuvi asosiy omil sifatida o'zini ko'rsatmoqda. Ozarbayjon holatida esa tabiiy boyliklar qo'shimcha omil bo'lib xizmat qiladi. Mintaqaviy va global savdo yo'llari chorrahasida joylashgan har ikki davlat o'zining strategik ahamiyati hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida ushbu geografik ko'rsatkichdan faol foydalanmoqda. Ayniqsa, global siyosiy beqarorlikning kuchayishi va ko'pqutblilikning chuqurlashuvi sharoitida O'zbekiston va Ozarbayjon mintaqalar hamda qit'alar o'rtasida ishonchli iqtisodiy va siyosiy koridorlar vazifasini bajarish salohiyatiga ega. Bu holat ularning Transkaspiy xalqaro Sharq-G'arb O'rta yo'lagi kabi yirik transport-kommunikatsiya loyihalarida, shuningdek, ShHTning o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish va samarali transport yo'laklarini yaratish bo'yicha hamkorlik konsepsiyasi kabi ko'p tomonlama tashabbuslarda faol ishtirok etishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur sa'y-harakatlar orqali O'zbekiston va Ozarbayjon o'zlarining tranzit markazlari sifatidagi mavqeini mustahkamlash hamda shakllanib borayotgan mintaqaviy va transregional tarmoqlarning ajralmas ishtirokchilari sifatida o'rin egallashga intilmoqda.

9. Umuman olganda, Ozarbayjonning tashqi siyosati nisbatan qat'iyroq xarakterga ega ekani kuzatiladi. O'zbekiston esa tashqi siyosat strategiyasini konseptual jihatdan yoritishda o'zini dinamikroq namoyon etadi. O'zbekiston tomonidan qabul qilingan tashqi siyosatga oid asosiy hujjatlar soni ushbu jarayonga mamlakat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilganini namoyon etadi. Shuningdek, tashqi siyosat yo'nalishlarini aniqlashtirish, takomillashtirish va konseptual asosini belgilashga katta sarmoya kiritilganini ko'rsatadi.

O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining xalqaro tashkilotlardagi yutuqlari hamda strategik yondashuvlarini qiyosiy tahlil etish natijalariga ko'ra, quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini yangi moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish uchun Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Savdo va taraqqiyot bankiga qo'shilish, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasiga a'zo bo'lish, "YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi" ro'yxatiga kiritilgan madaniy unsurlar sonini oshirish (2025-yil holatiga ko'ra bu ro'yxatda O'zbekistondan 16 ta, Ozarbayjondan esa 24 ta madaniy unsur mavjud) shakllarda kengaytirish;

2. Qo‘shilmaslik harakatiga bo‘lajak raisligi davomida O‘zbekistonning global sahnadagi yetakchilik mavqeini isbotlashi hamda tashqi siyosiy maqsadlarini ilgari surishi lozim. Shu bilan birga, Ozarbayjon Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan strategik maqsadlariga muvofiq ravishda, Shanxay hamkorlik tashkilotidagi muloqot bo‘yicha hamkor maqomini to‘laqonli a‘zolik darajasiga ko‘tarish yo‘lida izchil harakatni davom ettirish;

3. Turkiy davlatlar tashkiloti qoshida “Turkiy davlatlar tarixi va siyosati tadqiqotlari markazi” kabi qo‘shma ilmiy platformani tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur markaz O‘zbekiston, Ozarbayjon hamda boshqa turkiy davlatlarning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamkorligida faoliyat yuritib, tarixiy rivojlanish yo‘llari va zamonaviy siyosiy jarayonlarni tizimli ravishda o‘rganishga qaratiladi. Natijada ilmiy nashrlar, siyosiy tavsiyalar va tahliliy hisobotlar tayyorlash orqali mintaqaga oid yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlar hajmini kengaytirish;

4. O‘zbekistonning tashqi siyosatini takomillashtirish va uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun mamlakatning ijobiy xalqaro imijini shakllantirishga bag‘ishlangan maxsus konsepsiyani qabul qilishi maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil noyabr oyida “O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda mamlakatning ijobiy xalqaro rolini shakllantirish va targ‘ibot qilish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar hamda mexanizmlar belgilab berilgan edi. Biroq, ushbu tashabbus hanuzgacha huquqiy hujjat sifatida rasman qabul qilinmagan. Bundan tashqari, Ozarbayjon O‘zbekiston tajribasidan foydalanib, tashqi siyosatining konseptual asoslarini chuqurroq belgilab, bu yo‘nalishda keng qamrovli hujjatlarni ishlab chiqish;

5. Atrof-muhitga oid muammolarning transchegaraviy xususiyatga egaligi muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rishni taqozo qiladi. Markaziy Osiyo va Kaspiy kabi qo‘shni mintaqalarda joylashgan O‘zbekiston va Ozarbayjon umumiy ekologik xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘p tomonlama diplomatiya tamoyillari asosida qo‘shma chora-tadbirlar ishlab chiqish;

6. Ozarbayjon Janubiy Kavkazda “uch tomonlama hamkorlik (Ozarbayjon-Gruziya-Armaniston)” formatida ishlash sari yo‘nalayotgan bir paytda, u O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar tarkibida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy masalalarga yechim topish tajribasidan foydalanish zarur.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ON THE BASE OF SCIENTIFIC
COUNCIL PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 AWARDING SCIENTIFIC
DEGREES UNDER FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

MUSEYIBZADA JOVHAR SHAMSADDIN

**DIRECTIONS OF UZBEKISTAN'S AND AZERBAIJAN'S
INVOLVEMENT IN INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR
COMPARATIVE ANALYSIS**

07.00.05 – History of International Relations and Foreign Policy

ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in HISTORICAL SCIENCES

Fergana – 2026

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.3.PhD/Tar1609.

The dissertation has been completed at Ferghana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the Information and Educational Portal "ZiyoNET" (www.ziyo.net).

Scientific supervisor:

Usmonov Bakhmiddin Akhmedovich
doctor of historical sciences, professor

Official opponents:

Adigezalov Azer Nadir ugli
doctor of historical sciences, senior researcher

Gofurov Nizomjon Oktyabrovich
candidate of historical sciences, docent

Leading organization:

Andizhan State University

The defense of the dissertation will be held on 27 08 2026 at 11⁰⁰ at the meeting of the one-time scientific council on the base of Scientific Council Number PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 on award of scientific degrees under the Ferghana State University (Address: 150100, Ferghana city, Murabbiylar street, 19, Ferghana State University, Faculty of History, 2nd floor, meeting room. Tel.(99873) 244-44-02; fax: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz Ferghana State University).

Dissertation can be found in the informational-source center of the Ferghana State University (registration number 801). (Address: 150100, Ferghana city, Murabbiylar street, 19. The building of IRC). Tel. (99873) 244-44-94.

Abstract of dissertation is delivered "14" 08 2026.
(Register of certificate of delivery № 22 of "14" 08 2026).



N.B.Dekhkanov

Chairman of scientific council on awarding the scientific degrees, doctor of historical sciences, professor

N.O.Alimova

Scientific secretary of scientific council on awarding the scientific degrees, PhD, docent

M.G.Abdullaev

Chairman of scientific seminar under Scientific council on awarding the scientific degrees, doctor of historical sciences, professor

INTRODUCTION (abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and significance of the dissertation topic. The profound transformation of the political and economic environment, the emergence of regional conflicts, and the intensification of globalization following the collapse of the socialist system in the last decade of the 20th century have significantly increased the importance of international organizations worldwide. Against this backdrop, the Republics of Uzbekistan and Azerbaijan, having established their sovereignty, have been actively fostering close relations with international and regional organizations in their foreign policy to further consolidate their independence, secure an influential position on the global stage, achieve legitimacy, and integrate into the international community. To date, both countries have been fully conducting their relations with international organizations based on legal principles.

The active role of the Republics of Uzbekistan and Azerbaijan in the system of international relations, particularly their proactive policies within reputable organizations, has attracted the attention of leading international research centers. Prominent research institutions across Europe, Asia, the United States, and Russia have conducted a series of scientific research regarding their foreign policy strategies and participation in international organizations⁴⁷. In this regard, the topic of the present dissertation represents a highly relevant and timely area of scholarly inquiry for the academic circles today. These factors underscore the necessity of studying Uzbekistan's and Azerbaijan's strategies for achieving foreign policy objectives through international organizations, using contemporary methodologies.

The effective continuation of the country's foreign political and economic course is a crucial factor for the successful implementation of wide-ranging reforms and for strengthening its internationally recognized image, often referred to as the "national brand." As the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev stated, "Uzbekistan pursues an open and pragmatic foreign policy. As a result of our determined efforts on the international stage, the influence and reputation of our country are steadily increasing⁴⁸." According to him, the relations with international organizations is one of the main vectors of foreign policy, and the development of close cooperation with the United Nations (UN) and other reputable international and regional structures remains a constant priority⁴⁹.

This dissertation, to a certain degree, contributes to the implementation of tasks outlined in Uzbekistan's key legal and strategic documents, such as the Law

⁴⁷ The Hague Institute for Eastern Europe, the South Caucasus and Central Asia; the Institute for Security and Development Policy in Sweden; the Russia/Eurasia Center at the French Institute of International Relations; the Center for Eurasian Studies (AVIM) in Türkiye; the Center for Strategic Research of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Türkiye (SAM); the Institute for East European, Russian and Central Asian Studies at the Chinese Academy of Social Sciences; as well as the Center for Eurasian, Russian and East European Studies at Georgetown University in the United States; the Central Asia-Caucasus Institute at the American Council on Foreign Relations; the Carnegie Russian Eurasia Center; and the Center for Central Asian, Caucasus and Ural-Volga Studies (CAUCAVUS) at the RFA Institute of Oriental Studies.

⁴⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда Эркин ва фаровон яшайлик!. – Tashkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – P. 7.

⁴⁹ Ibid. P. 27.

No. O'RQ-458 of January 9, 2018, "On the Defense Doctrine of the Republic of Uzbekistan"; Decree No. PF-60 of January 28, 2022, "On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026"; Decree No. PF-158 of September 11, 2023, on the "Uzbekistan–2030" Strategy; Resolution No. PQ-3105 of June 30, 2017, "On the Organization of the Activities of the Public Council on the Contemporary History of Uzbekistan under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan"; and Resolution No. PQ-467 of December 31, 2024, "On Measures to Effectively Organize Strategic Analysis and Research Activities in the Areas of the Country's Social, Political, and Economic Development," as well as in other normative-legal acts.

Alignment of the research with the priorities of the republic for the development of science and technology. This research has been carried out in accordance with the priority area titled "I. Formation and Implementation of a System of Innovative Social, Legal, and Economic Ideas for Information Society and Democratic State" within the framework of the development of science and technology in the republic.

Existing literature on the research problem. Both domestic and foreign authors have dedicated numerous works, focusing on various aspects of the foreign policy activities of Uzbekistan and Azerbaijan. For analytical purposes, it is appropriate to categorize these studies into three main groups.

